

**JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONLARIDA
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH USTUVORLIGI:
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV**

RAXMATOVA MUXAYYO ELBOBOYEVNA
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI O'QITUVCHISI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat transformatsiyasi jarayonida ekologik barqarorlikni ta'minlashning ustuvorligi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Ekologik muammolarni bartaraf etishda ongli transformatsiya va ekologik madaniyatni shakllantirishning o'rni, shuningdek, barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: transformatsiya, ekologik barqarorlik, ijtimoiy-falsafa, barqaror rivojlanish, ekologik ong, Yangi O'zbekiston.

Kirish. XXI asrda jamiyat taraqqiyotining barqarorligi ekologik xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq holga keldi. Bugungi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ekologik muvozanatning buzilishi insoniyat sivilizatsiyasi uchun dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan transformatsion jarayonlar doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi O'zbekiston davrida inson qadri, barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan yondashish kabi tamoyillar yangi ijtimoiy ong va madaniyat asosida shakllanmoqda. Bu esa ekologik barqarorlikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. **2017 yil 7 fevralda 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor beshta yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Ushbu dasturning**

uchinchi va beshinchi yo'nalishida “Iqtisodiyoni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishi” va “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida “qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish”, “Atrof tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish” belgilab qo'yilgan bo'lib uni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish belgilab berildi. Avvalo, mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarining asosiy maqsadi inson va uning manfaatlariga xizmat qilishdan iborat bo'lib, bu prinsip amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda. Atrof-muhit — bu tirik organizmlarga, jumladan inson hayoti va salomatligiga bevosita ta'sir qiluvchi tabiiy (havo, suv, tuproq, iqlim) hamda antropogen (shaharsozlik, chiqindilar va boshqalar) omillar majmuasidir. Ushbu omillarning salbiy ta'siri ekologik muvozanatni buzmoqda va barqaror taraqqiyotga tahdid solmoqda.

Ekologik muhofazaga oid strategik vazifalar, xususan, **“Harakatlar strategiyasi”** va tegishli davlat dasturlari orqali amaliyotga tatbiq etilmoqda. Radiatsiya xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda aholining xabardorligini oshirish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, fuqarolar muhofazasi tizimini kuchaytirish, shuningdek, qishloq xo'jaligida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Qishloq xo'jaligida resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalar, yuqori hosildor seleksiya navlari va mahalliy iqlimga mos ekinlar joriy etilmoqda. Orolbo'yi mintaqasida iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik, chang bo'ronlari, yog'ingarchilikdagi o'zgaruvchanlik O'zbekistonni ekologik xavfli hududlardan biriga aylantirmoqda. Ayni vaqtda, 2022-yilda qabul qilingan *****“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”*****da ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu hujjatning 21–24 va 30–34-maqсадlari, VI-bo'limidagi 79–81-maqсадlar bu sohadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi.

Maqolada kuzatish, qiyosiy va tizimli tahlil, dialektik yondashuv, solishtirma va omilli baholash kabi ilmiy tadqiqot uslublaridan foydalanilgan. 2022-yilgi xalqaro iqlim va taraqqiyot hisobotida O'zbekiston 2050-yilga borib aholisi 50 milliondan ortadigan davlatlar qatoriga kirishi kutilayotgani qayd etilgan. Bu esa tabiiy resurslarga bosimning oshishi va ekologik xavfsizlikka bo'lgan talabni keskin kuchaytiradi.

Ayni paytda, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishining iqtisodiyotga salbiy ta'siri sezilarli bo'lib, sog'liqni saqlashga yetkaziladigan zararining yillik qiymati YAIMning 6,5 foizini tashkil etmoqda. YaIM o'sishi aholining turmush darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, bu o'sish ortidan energiya va resurslar iste'molining oshishi ham ekologik bosimni kuchaytiradi.

2019-yildan boshlab O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari milliy portali faoliyat yurita boshladi. Portal markazlashtirilgan milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha axborot resurslaridan foydalanadi. 2019 yil may holatiga ko'ra portal milliy ko'rsatkichlarning qariyb uchdan bir qismi uchungina ma'lumotlarni taqdim etadi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan atrof – muhit muhofazasi bo'yicha deyarli tahliliy ma'lumotlar mavjud emas. Mavjudlari ham faqat Gender tenglik doirasidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

O'zbekistonda atrof – muhitni strategik ekologik baholash vositasi hali qo'llanilmagan, tarmoq hujjatlarida ham ekologik baholash vositasidan xabardorlik cheklangan. Strategik baholash vositasi O'zbekistonga ekologik barqaror rivojlanish uchun siyosatning muvofiqligini amalga oshirishga yordam beradi. Shu orqali ekologik barqarorlikni jahon indeksi bilan integratsiyalashni amalga oshirish mumkin. Mamlakatimizda mazkur sohada ayrim vakolatlarni Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi amalga oshirayapti. Ushbu sohaga doir ijro siyosatini davlat organlari tomonidan tekshiruvlarni kamaytirish va faollashtirishga qaratilgan chora – tadbirlarga rioya etilishini monitoring qilishda fuqarolarni jalb qilish lozim. Ammo fuqarolarni jalb qilish uchun hech qanday tartib mavjud emas. Mavjudlari ham faqatgina ularning uy xo'jaliklari doirasida amal qiladi. Ushbu sohada jamoat ekologik inspektori lavozimi faoliyat yuritib

birgina 2017 yildan boshlab minglab fuqarolar jamoatchilik ekologiya inspektori sifatida malaka oshirib guvohnomalarga ega bo'ldilar. Ammo ularning soni va shaxsiy ma'lumotlari haqida rasmiy statistika mavjud emas, mavjudlari ham ochiq holda taqdim qilinmaydi. Ushbu inspektorlarga tekshirish va majburlash vakolati yuklatilgan bo'lib, ular faoliyatida ma'muriy jarimalar miqdori huquqbuzarliklarning oldini olish uchun juda past. Ammo qoidabuzarlikdan iqtisodiy foyda juda yuqori. Masalan, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi ko'p holatlarda bu tashkillashtirilgan biznes faoliyati bo'lib, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hisoblanadi. Ammo bunda sanksiya miqdori jismoniy shaxslar uchun enh kam oylik ish haqqining 0.3 – 1.0 baravarigacha, yuridik shaxslar uchun 1-3 baravarigacha miqdordagi jarima miqdorida qilib belgilangan.

ADABIYOTLAR

1. “2017 – 2022 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi” davlat dasturi. 7.01.2017 yil Xalq so'zi 7 son
2. “Davlat ishtirokidagi korxonalarni islox qilish va xususiylashtirishni jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi O'zbekiston respublikasi Prezidenti farmoni 2020 yil 27 oktyabr PF- 6096- son
3. I.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” – T. O'zbekiston. 1997 yil, 19 b
4. Mamashokirov S. “Vahimami yoki haqiqat”. – T. “Iqtisod - moliya”, 2012 y. 28 b
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari Geneva hisoboti. 2022 yil